

Uzbekiston Respublikasi
M.TOJIBOYEV, U.XO'JAMQULOV,
SH.BOTIROVA

ADABIY GERMENEVTIKA VA BADIYY TIL POETIKASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAILIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

M.TOJIBOYEV, U.XO-JAMQULOY, SH.BOTIROVA

**ADABIY GERMENEVTIKA VA
BADIY TIL POETIKASI**

137/19/26

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TAILIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

«ZEBO PRINT»
TOSHKENT – 2022

UO'K: 68(075.832)

KBK: 45ya62

M.Tojiboyev, U.Xo'jamqulov, Sh.Botirova

Adabiy germevika va badiiy til poetikasi [Matn]: o'quv qo'llanma / M.Tojiboyev, U.Xo'jamqulov, Sh.Botirova. — Toshkent: «ZEBU PRINT», 2022. — 244 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada badiiy asar matnini tushunish adabiy germevikaning asosiy omili, adabiy germevikaning taraqqiyot mezonlari, badiiy matn tushunish va aqliy faoliyat tizimi jarayonlari, adabiy germevikaning boshqa fanlar orasidagi o'rni, adabiy germevika tarixi, germevik tahlil va badiiy asar yorqini, badiiy matn o'zlashtirish jarayonida ijodiy yorqin imkoniyatlari, badiiy matnda germevik tahlilining munosabat kategoriyalari xususida yuritilgan.

O'quv qo'llanma kredit modul asosida ta'lim oluvchi maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til yo'nalishi bakalavr, magistranti, tadqiqotchilar va mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

filologiya fanlari doktori, professor **N.Rahmonov**

Mualliflar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent **M.Tadjiabayev**

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent **U.N.Xodjamqulov**

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent **Sh.I.Botirova**

Taqrizchilar:

pedagogika fanlari doktori, professor **S.Matchonov**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent **N.I.Satova**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25 dekabrda 538-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8554-7-2

KIRISH

Buyuk fransuz faylasufidan biri "Alloh insonga o'zining haqiqiy his-tuyg'ulari va fikr-mulohazalarini yashirish uchun gapirish haqiqini bergan", degan edi. Gapirish, so'zlash jarayonida inson o'zining haqiqiy maqsad va istaklarini ommadan yashirar ekan, o'sha yashiringan maqsad-istaklarni qanday bilish, aniqlash mumkin, degan savol tug'ilib tabiiy. Bu o'rinda insonga germevika yordamga keladi. So'zni aql orqali anglab etamiz, tuyg'uni esa, hissiyot bilan sezamiz. So'z bilan anglangan dunyo, aql bilan etkazilgan borliq. Ruh bilan sezilgan holat esa, tuyg'u, qalb ruhi, hissiyot to'lgini, uni hali nomlash zaruriyati bor. Shu hodsaga nom izlash jarayonida biz dunyoning yangi ranglarini ochib boramiz. Agar biz bironing tushunmayotganligiga duch kelsak, shuni e'tiborga olishimiz lozimki, bu uning aybi emas, balki bu uning bu hodisadan tamoman bezabartligi sababli, xolos. Bir tomondan olib qaralganda germevika ma'nosizlikdan ma'no qidirishdan iborat, chunki olam hodisalarining tubsiz rang-barangligi ham shundaki, har qanday xaosda ham o'ziga xos ma'no va qonuniyat mujassam.

Jahon adabiyotshunosligining so'nggi davrdagi yutuqlaridan biri bu germevika sohasidagi tadqiqotlarda miqdor va sifat salmog'i-ning ortganligi bilan bog'liq. Badiiy asar matn tahlilining yangi metod va usullari badiiy matn tushunib etish orqali uning original matn arxitektomikasi vositasida aks etgan badiiy tafakkur qirralarini anglab etish, uni o'zlashtirish va hazm qilishning ratsional-emotsional imkoniyatlarini kengaytirib yubordi.

Badiiy adabiyot ijtimoiy ong sohasi sifatida jamiyat hayotining barcha tomonlariga kirib borgan. Shu bois ijtimoiy psixologiya, ilm-fan yutuqlari, iqtisodiyot mezonlari ham badiiy tafakkur ifoda aspektlarining ichida bo'lib qoldi.

Germevika bu-vujud ichki vulqonlari natijasida toshga chiqayotgan qudrat silsilasining badiiy matn orqali aks etgan holatlari, qirralariga nom berish demakdir. Musiqi — inson ruhiy, botiniy dunyosi holatlari, harakatlarning ovozi, sasi. Ovoz, sas notalarini nomlash she'riyat, poetikaning vazifasidir. Germevika nom olgan elementlarning ma'no qirralarini ochish vositasida ikkinchi to'lqin ichki ruhiy bo'ronlar partiyasiga yo'l ochadi. Keyingisi yana keyingisiga yo'l beradi. Bu

ruhli kashfiyotlar tizimi cheksiz davom etaveradi. Biroq har bir partiya ruhli to'liqlar inson tasavvur dunyosini, olamni ruhli o'zlashtirish imkoniyatlarini, uning intellektual mentalitetini yangi bosqichga olib chiqadi. Binobarin, inson oldida dunyoning yangi ranglarini kashf qiladi.

Antik adabiyotdagi mitologik tafakkur o'rta asrlarda realistlik manzaralarga, yangi davrda esa romantizm va realistlik tasvir usulining chatishtigan mezonlarini shakllantirdi. XIX asr adabiyotida bosh planga ko'tarilgan hol bu - inson ichki dunyosining poetik tasviri edi. Inson ichki dunyosining individual qirralarini topish, uning yangi shtrixlarini kashf qilish, binobarin, ijtimoiy psixologiyaning yangi-yangi tamoyillarini shakllantirish badiiy adabiyot, badiiy tafakkurning faqatgina falsafiy - estetik hodisa sifatidagi holatini istisno qildi.

XX asrning 90-yillarida insoniyat ikkita buyuk inqilobni boshdan kechirdi. Bulardan birinchisi siyosada, ikkinchisi texnologiyada amalga oshirildi. Siyosiy inqilob sotsialistik lagerni barbod qildi, chegaralarni ochib yubordi yoki intizomni bo'shashtirdi. Odamlarning dunyo bo'ylab erkin aylanib yurishlari uchun sharoit yaratdi. Ilm-fan natijalarining inson faktori yoki ommaviy nashr, kitob vositasida xalqaro istilohga kirishi tezlashdi. Kommunikatsiyaning kuchayishi yangi badiiy asarlar bilan birga, yangi adabiy qarashlarning ham o'zlashtirilishida hududiy to'siqlarni olib tashladi. Shu o'rinda ikkinchi - texnologiya sohasidagi inqilobning ham o'rni va ahamiyati buyuk. Odamlar internet, mobil aloqa vositalari orqali qisqa muddatlarda borilqning turi chekkasida yuz bergan, berayotgan va hattoqi yuz berishi mumkin bo'lgan yangilikdan xabardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib qoldilar.

Imkoniyatlarning kengayishi inson ongi, tafakkuri, badiiy-estetik qarashida ulkan o'zgarishlar yasadi. Natijada odamlar borliqqa, hayotga, jamiyatga tamomila yangi ko'z, yangi nigoh bilan qaray boshladilar. Avvallari inson mentalitetida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy faktor bosh rol o'ynagan bo'lsa, endilikda inson ichki dunyosi, individual psixologiya, uning qalb manzaralarini o'rganish, shu orqali borliqning, jamiyatning yangi ranglarini kashf qilish muhimroq bo'lib qoldi. Badiiy asarning ham san'at namunasi, ham ijtimoiy - estetik ong namunasi sifatidagi imkoniyatidan foydalangan holda jamiyat psixologiyasining yangi ranglarini topish, yaratish va shakllantirish borasidagi imkoniyatlari getmenevtikaning ahamiyatini oshirib yubordi. Badiiy matn tahlili orqali

inson asarda aks etgan hayot manzarasini o'z imkoniyati darajasida o'z mentalitetiga muvofiq shaklda qabul qilishi mumkin.

O'zbek mumtoz adabiyoti poetikasining tadqiqi ko'lamli beqiyos. Uning izlanish ob'ektlari va aspektlari badiiy jarayonning deyarli barcha xususiyatlarini qamrab olgan. Navoiy, Bobur, Shaboniy, Mashrab, Oqabiy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat va yana qator klassiklar, Avliya, navoiyshunoslik, navoiyxonlik nafaqat O'zbekistonda, balki jahon miqyosida keng masshtabga egaligi bilan tahsinga sazovor. Klassiklarning ijodiy merosi to'la yoki ayrim to'plam va alohida asarlari misolida tadqiq qilingan. Bunday ishlarda asosiy e'tibor eng avvalo ijodkor adabiy merosining g'oyaviy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan edi.

O'zbek mumtoz adabiyoti badiiy tilining o'rganilishi ham o'ziga xos an'analarni mujassam qiladi. Bu boradagi tadqiqotlarning aksari badiiy asar tili va adabiy til o'rtasidagi munosabatlarni muqoyasa qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Adabiy til umumxalq tilining muayyan qolipga solingan shakli bo'lib, uning barcha lisoni xususiyatlarini qamrab oladi, o'zining barcha qirralari bilan badiiy adabiyotda namoyon bo'ladi. Biroq har qanday badiiy asarni adabiy til namunasi deb hisoblash noto'g'ri bo'lar edi, chunki bu hol badiiy asarning individual ijod namunasi ekanligini ta'kidlaydi. Shoir (ijodkor) o'z asarlarida goh hazil, goh chuqur falsafiy ma'noli fikrlarga tayangan holda tasodifan yangi, kutilmagan fikrlarni, tushunchalarni kashf qiladi. "Ijod bu-sog'lik, bu-har qanday kasallikka qarshi kurash, bu-yangilanish va ruhan poklanish, katarsis" demakdir¹. Ijodkorning badiiy fantaziyasi uning milliy va shaxsiy mentalitetiga muvofiq ravishda lisoni imkoniyatlari bilan bog'liq. Ijodkorning xalq tilidan qanchalar bahramand ekanligi muammosi uning o'zi egallab turgan til xususiyatlarini badiiy matnda qanchalar mahorat bilan qo'llay olishi bilan bog'liq. Biroq yo'l-g'iz bilish va

1 Винокур Г.О. О языке художественной литературы. - М.: 1991, стр. 30.

2 Арнаулов М. Психология литературного творчества. - М.: 1970, стр. 49.

qo'llashning o'zi muallifning cheklangan imkoniyati xolos, u shuning uchun ham ijodkori, tilning yangi badiiy imkoniyatlarini hosil qilishi, yaratishi lozim. Xuddi mana shu o'rinda ijodkor okkazonal holatlar vujudga keltiradi, badiiy fantaziya yaratadi, badiiy tafakkurning yangi qirralarini shakllantiradi, binobarin, insoniyat ijodkorligi imkoniyatlarini kengaytiradi. Tilning leksik-semantik imkoniyati, o'quvchi-kitobxon mentaliteti va uning ijodiy tayyorgarligi mana shunday sharoitda badiiy matn ifoda imkoniyatlarining gemeneytik taraqqiyoti asosida yotadi.

Biroq bu hol har qanday ijodkorning ham imkoniyati darajasida emas. Badiiy asar orqali ijtimoiy ong, badiiy tafakkur taraqqiyotiga hissa qo'shish, uning sayqal topishini ta'minlash yolg'iz klassiklargaгина nasib qiladi. Chunki klassik—bu shunday ijodkori, toki undan inson hali o'zi anglab etmagan borliq ufoqlarini, uning yangi qirralarini o'rganib. Ana shu jihatdan olib qaralganda badiiy asar matni, uning arxitektonikasi orqali aks etgan ijodkor badiiy dunyosini o'rganish bir tomondan o'ta murakkab bo'lsa, ikkinchi tomondan nihoyatda muhim hamdir.

She'riy asarlar inson badiiy-estetik dunyoqarashining o'ziga xos ifodasi bo'lganligi bois alohida tadqiqotni talab qiladi. She'riyat tilining funksiyasi oddiy, umumxalq tilining funksiyasiga mos kelmaydi, uning qandaydir o'ziga xos timoliy murakkabligini tashkil qiladi. She'riyat tili - murakkab tili, unda tushunchalar bir xil timsollar vositasida belgilanib, o'ziga timsollarda izohlanadi, boshqalari bilan xulosalanadi.

She'riy asarlar matnining o'ziga xos xususiyati shundaki, u mana shu timsollar vositasida yangi, mavhum tasavvur-illyuziya uyg'otadi. Shuning bilan bir qatorda she'riy timsolli so'zlar real, mavjud so'zlarning alohida funksiyasi sifatida in'ikos etiladi, chunki she'riyatning o'zi bizni o'rab turgan ob'ektiv borliqning xususiy bir in'ikosidir. Shoir xalq tilidan bir tushunchani olib boshqa xil bilan qiyoslaydi yoki bir tushunchani ikkinchisiga chog'ishtiradi, natijada sintez-uchinchi, yangi fikr hosil bo'ladi.

Lirik matnda stilistikaning o'tmi muhim, chunki oddiy nutqdagi bir ma'no so'zlar she'riyatda ko'chma ma'no kasb etadi, bu hol stilistik yo'l bilan amalga oshiriladi. Stilistika she'riyatda qanchalik muhim bo'lmasin, g'oya - ma'no-mohiyat tili doimo etakchi o'rinda turadi, chunki shoirning stilistik uslubdan ko'zlagan maqsadi ham g'oya-original g'oya ifodalashdir. She'riy asar matni o'zida nafaqat

tilning ma'lum bir shakllarini mujassam etadi, balki eng avvalo tilda ifodalangan g'oya, ma'no va hissiyotni aks ettiradi. She'riy matnda har bir so'z obrazga aylanadi.

Badiiy asar matni, badiiy matn lingvopoetikasini o'rganish o'ziga xos tarrixga ega. Sharq ilmidagi badiiy asar matnini o'rganish borasida Abu Nasr Farobiyning asarlari muhim ahamiyatga ega¹. U o'zining she'r san'ati va shoiriylarning she'r yozish san'ati qonunlari haqidagi asarlarida lirik asarlar matni, uslub va ularni badiiy-estetik nuqtai nazardan tahlil qilish borasida qimmatli fikrlar bildirgan². Bevosita turkiy adabiy yodgorliklar janri, vazni va boshqa poetik xususiyatlari haqida matn va badiiy til xususiyatlariga bag'ishlangan asarlardan Navoiyning «Mezon ul-avzon»³ va «Majolis un-nafois»⁴ risolalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bobur o'zining «Muxtasar» asarida eski o'zbek va fors-tojik tillarida yaratilgan lirik asarlar adabiy - iloniy va matn xususiyatlari haqida qimmatli fikrlar bildirgan⁵.

Keyingi davrlarda o'zbek mumtoz adabiyotining matn va poetik xususiyatlarini o'rganish borasida qator yirik tadqiqotlar bajarildi⁶.

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan so'ng avvalda ta'qilangan qator yangi sohalarini o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratildi. Adabiyotda va adabiy ong taraqqiyotida ham tub islohotlar kuzatildi.

Milliy madaniyatning yangi qirralari belgilanayotgan hozirgi sharoitda uning ajralmas qismi bo'lgan adabiyotni yaratish, o'rganish va uning badiiy-g'oyaviy imkoniyatlari orqali ijtimoiy - siyosiy ong

¹ Фараби А. Фотил олимлар шайхри.-Т.:1993.

² Шайхри. 110-125-бетлар.

³ Навоий. Мезон ул-авзон.-Т.: 1974.

⁴ Навоий. Маҷолис ул-наfois. Илмий-таъкидий матн.-Т.: Фан. 1977.

⁵ Бобур З.М. Мухтасар.-Т.: Фан. 1971.

⁶ 1) Маликов Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи.-Т.:1965.

2) Хайитметов А. Навоий лирикаси.-Т.: 1961.

3) Навоий О. Ўзбек адабиётининг тизми.-Т.: 1972.

4) Навоий С.Н. Пять веков узбекской поэзии в красе негленной предстаёт.

Ученые-исследователи лирика XV-XX вв.-М.:1982.

5) Навоий А. Навоийнинг бадий махорати.-Т.:1982.

6) Навоий В. Навоий поэтикаси.-Т.: 1983.

7) Сулейман И. В. Семантика тизмий Бабура.-М.: 1982.

8) Сулейман И. Адабиёт назариси.-Т.: 1986.

9) Тоғонбаев М. Мухтасар. Шайхри лирикасида бадий тил муаммолари.-Т.: 1986.